“FEYNBERG IJODINI TARANNUM ETAMAN “

Shoniyeva Oyjamol G’ayrat qizi
Òzbekiston milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish òzbek tili yónalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : *“Ushbu maqolada O’zbekiston xalq shoiri Aleksandr Feynberg haqida sòz yuritiladi. Abdulla Oripov aytganlaridek “ noyob shoir va tarjimon “ning sherlari taxlil qilinadi . “Sòz" sherining mazmun mohiyati ochib beriladi.*

Kalit so’zlar : *she’r, iste’dod, tarjima, sòz, adabiyot, tuyǵu, ilm va ijod.*

Annatation: *This article is about the national poet of Uzbekistan Aleksandr Feynberg. As noted by Abdulla Oripov the poems of the “ unique poet and translator “ will be analyzed. The essence of the poem “Word" is revealed.*

Key words: *poem, talent, translation, literature, feeling, science and creativity.*

KIRISH:

Adabiyot xalqning yuragi elning manaviyatini kòrsatadi. Bugungi murakkab zamonda, odamlar qalbiga yòl topish, ularni ezgu maqsadlarga ilxomlantirishda adabiyotning tasirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini òrganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. (Òzbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.M.M)

Asosiy qism: Òzbekiston xalq shoiri Aleksandr Feynberg òzining gòzal she’rlari va mahorat ila qilingan tarjimalari bilan adabiyotimizni boyitdi. Poytaxti azimda tuǵildi va ilk she’rlari ham shu yerda dunyo yuzini kòrdi. Uning ilk kitobi “ Velosiped yòlakchasi “ nomi ostida bosib chiqarildi. Yozuvchi hozirgi Òzbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakultetini tamomlagan. “Etyud “(1967) “Soniya"(1969) “she'rlar" (1977) va bir qancha kitoblari dunyo yuzini kòrdi. Yorqin va òziga xos iste’dod egasi asarlarining yuqori estetik darajasi bilan boshqalardan farq qiladi. U tarjima bòyicha ham samarali ishladi. Masalan Erkin Vohidovning “ Ruhlar isyoni “ asarini rus tiliga tarjima qildi. Omon Matjon va Alisher Navoiy asarlarini ham.

Poezd kechikishi odatiy voqea,
Samalyotni kutib ichikadi kòz.
Haqiqiy baxtsizlik katta fojia-
Mobodo kechiksa kutilayotgan sòz.
Sòngan gulxan uzra bòlgandek pushmon,
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun
Kechikkan sòz ǵarib, yiǵlaydi yomon
Uni kecha kutgan odamlar uchun.
Kechikkan sòz bois òrmonlar yetim,
Bepayon yerlarning peshonasi shòr

Qabrlar qoshida sòz ham besòz jim

Ruhlar bezovtayu qismat kòzi kòr.

She’r juda ajoyib, unda badiiy vositalardan juda òrinli qòllangan. Aslida ham bu hayotda kòp narsalarga kechikiladi. Misol qilib esa poyezd va Samalyot qilib berilgan. Ketish bu juda oǵir eng yomoni kutganing òz vaqtida bòlmasa qalbing oǵriydi , ishtiyoqing sònadi. “Qolgan ishga qor yoǵar “ idorasi bu sherga juda mos keladi.

Kechikkan sòz ǵarib, yiǵlaydi yomon

Uni kecha kutgan odamlar uchun.

Etibor bering sòz ǵarib, yiǵlaydi yomon. Nega sòz ǵarib? U nega yiǵladi ? negaki kechikishlar afsuslarni, pushaymonlarni keltirib chiqaradi. Vaqtida aytilmagan sòzlar evaziga biz kimlardandir, nimalardandir quruq qolamiz. Yokida manzilga yetolmaymiz va balki yarim yòllarda qolamiz . Shoir aytmoqchiki har bir narsa òz vaqtida aytilishi , berilishi, kelishi , ketishi, unitilishi lozim. Vaqtida bòlmasa qadr qimmatini yòqotadi kòp narsalar. Òrmonlarning yetimligi bu ramziy mano òrmonda nihollar , daraxtlar òsadi yashillik va yaxshilik bor joy. Bugungi jamiyatimdagi katta muammolardan hisoblangan oilalar buzilishi, farzandlar yetim qolishi hammasi vaqtida qilinmagan harakat va aytilmagan sòzlardan.

Qabrlar qoshida sòz ham besòz jim

Ruhlar bezovtayu qismat kòzi kòr

Ushbu jumlada sòzning besòzligiga etibor beraylik. Nahot sòz besòz bòlsa. Ilojsizlik deb nomlagim keldi. Abdulla Oripov shunday ta'rif bergan edi shoirga “ Aleksandr Feynberg ijodiga kelsak, barcha baland sòzlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi rus tilida sòzlashadigan yozuvch ilardan hech biri bizning quyoshli diyorimizga samimiy qòshiq kuylashi mumkin emas “ Uning sherlari zòr ishtiyoq bilan òqildi. U kinoseenarylar va multfilmlar yozdi va ekranlarda kòrildi. U bu xizmatlari uchun “ Òzbekistonda hizmat kòrsatgan madaniyat xodimi “ “ Òzbekiston xalq shoiri “ kabi unvonlarga loyiq kòrildi. Aslida u bundan kòplariga va yaxshilariga loyiq. Xulosa òrnida aytish joizki Aleksandr Feynberg tilidan yoki millatidan qa’ti nazar barcha sevib òqiydi va òz kitobxonlariga ega shoir. Unga bòlgan etibor yildan yilga ortmoqda. Uning “ Sòz" she'rini òqir ekanman ich ichimda pushaymonlarim òtdi, va xulosalar yasadim. Vaqtida aytilganlari qadrli “Inson umri izhorlardan iborat “ Ibrohim Ǧafurov haqiqiy iste’dod egasiga shunday ta’rif beradi. “ Aleksandr Feynbergni juda yaxshi tanirdim. Òzbekiston Respublikasi shoirlarining orasida kòzga kòringanlardan edi. Sheriyati Òzbekiston va òzbek xalqi taqdiri hayoti , orzu-umidlari bilan chambarchas boǵlik edi. Shoir Òzbekistonni sevardi. “ U òz she'rlarida vatan uchun millat uchun qayǵurdi , u bor kuchi bilan odamlarga xizmat qildi. Bugun ertaga va bir umr uning yodi bilan yashaymiz. Òzbek xalqi Aleksandr Feynbergning sherlarini sevib òqiydi va hurmat qiladi. U har qanday holatda ham òzbek xalqiga sadoqatli bòldi. Òzbek xalqining buyuk shoirlaridan desak mubolag’a bòlmaydi. Buning isboti sifatida esa “Adiblar hiyoboniga" òrnatilgan uning muazzam haykali. U òzbek

tilini òz ona tilisidek kòrdi. Tilga bòlgan hurmat vatanga bòlgan muhabbatni yoritib berdi. Òtkir Hoshimov aytganlaridek “ Kòp til bilgan yaxshi, lekin har kim òz tilida tafakkur qiladi “ balki tilimizning boyligi ham sherlar va tarjimalar gòzalligini taminlaydi. Aleksandr Feynberg haqida sòng sòzim ustoz haqiqatda ilohiy yuqtirilgan iste’dod egasi edi. U barchamiz uchun birdek sevimli va qadrli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Òzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2 Ziyo.uz (sayti)